

DISKURSIV MARKERLARNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TUTGAN O'RNI

Abdumalikova Dilfuza

Jizzax davlat pedagogika universiteti Filologiya fakulteti o'qituvchisi

Abdullayeva Manzura Farhod qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18779979>

Annotatsiya: Mazkur maqolada diskursiv pragmatik markerlar haqida umumiy tushuncha va olimlarning qarashlari berilgan. Shuningdek, ularning bugungi o'zbek tilshunosligida tutgan o'rni misollar orqali ko'rib chiqilgan.

Abstract: This article provides a general understanding of discursive pragmatic markers and the views of scholars. It also examines their role in today's Uzbek linguistics through examples.

Kalit so'zlar: Diskursiv, pragmatika, markerlar, bugungi o'zbek tilshunosligida diskursiv markerlar

Keywords: Discursive, pragmatics, markers, discursive markers in today's Uzbek linguistics

So'ngi yillarda tilshunoslikda "diskursiv markerlar" termini ko'p ishlatilmoqda. Xo'sh, diskursiv markerlar qanday termin biz ulardan qanday foydalanamiz, nutqimizda uning ahamiyati qanchalik darajada? Diskursiv markerlar- bu tilning og'zaki yoki yozma shaklidagi gaplar, fikrlar yoki xabarlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan, ularni bog'laydigan so'zlar yoki ifodalardir. Ular muloqotda fikrlarni, munosabatlarni, vaqtni yoki boshqa kontekstual ma'nolarni aniqlashda yordam beradi. Diskursiv markerlar nutqiy jarayonda gaplar orasidagi bog'lanishni ta'minlovchi, muloqotni boshqaruvchi va tinglovchiga qo'shimcha ma'lumot beruvchi birliklar sifatida ta'riflanadi. Jahon tilshunosligida bu birliklar pragmatolingvistika va diskurs tahlili doirasida o'rganiladi. Masalan, ingliz tilida "well", "so", "but" kabi so'zlar Diskursiv markerlar sifatida ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida ham mustaqillikdan keyin bu mavzu kengayib, G'arb tilshunosligi bilan hamqadam rivojlanmoqda.

Diskursiv markerlar bo'yicha turli qarashlar mavjud. Safoyeva Sadokat Nasillovna o'z ishida Diskursiv markerlarning pragmatik va diskursiv jihatlarini ko'rib chiqib, ularni transkotigorial, funksional va formal birliklar sifatida tasniflaydi. Masalan, o'zbek tilida "shuning uchun", "lekin", "ya'ni" kabi birliklar Diskursiv markerlar sifatida ishlatiladi. Ular nutqiy jarayonda bog'lovchi, tasdiqlovchi yoki qarama-qarshilik bildiruvchi vazifalarni bajaradi. Jahon tilshunosligida Andersen G. kabi olimlar Diskursiv markerlarni sotsiolingvistik variatsiyalar asosida o'rganadi, xususan, yoshlar tilida ularning qo'llanilishini tahlil qiladi. O'zbek tilshunosligida esa, bu mavzu pragmatolingvistika doirasida rivojlanmoqda, chunki mustaqillikdan keyin tilshunoslik jahon standartlariga moslashdi.

B. Freyzerning ta'kidlashicha, pragmatik markerlar "diskurs segmenti"ning bir qismi bo'lib, leksik iboralarni ifodalaydi, lekin ular o'zlarining "propozitsional tarkib"iga ega emas, balki faqatgina gapiruvchining munosabatini bildiradi [Fraser 1990: 386]. Bu fikr shuni anglatadiki, pragmatik markerlar gapning mazmunini to'g'ridan-to'g'ri ifodalamaydi, balki gapga qo'shimcha ma'no yuklaydi, masalan, munosabat, ta'kid, yoki bog'liqlikni ko'rsatadi. Pragmatik markerlar: Gapning yoki matnning umumiy ma'nosiga ta'sir qiluvchi, lekin o'zi mazmunli leksik birlik bo'lmagan so'zlar yoki iboralar. Misol uchun, "albatta", "haqiqatan ham", "shuning uchun", "demak" so'zlar. kabi Propozitsional tarkib: Gapning asosiy mazmunini

ifodalovchi qism. Masalan, "U keldi" gapida "U" kim ekanligi va "keldi" nima ekanligi propozitsional tarkibga kiradi.

Gapiruvchining munosabati: Gapiruvchining gapga nisbatan munosabati (masalan, ishonch, shubha, ajablanish) yoki matnni boshqa qismlariga bog'liqligi. Pragmatik markerlar bu munosabatni bildirishga yordam beradi. Rus tilshunosi A.A.Kibrikni diskursiv markerlar bo'yicha quyidagi fikrlarni olg'a suradi: diskursiv markerlar bu -“ gapiruvchi va tinglovchi o'rtasidagi diskursiv jarayonni tartibga soluvchi ahamiyatsiz so'z va iboralar”. Freyzer kabi Kibrik ham markerlarni hech qanday propozitsional ma'lumotni o'zida saqlamasligini, ularning “ funksiyalari esa diskursiv oqimni tashkil qilish va tartibga solishini” ta'kidlaydi. [Кибрик, Подлеская 2009]. I.P Massalina ham “diskursiv markerlarni maxsus so'zlar toifasiga tegishli bo'lib, uning muhim jihati bu diskursning funksiyalarini bevosita bog'laydi” deb ta'kidlaydi [Массалина 2009: 212]. Diskursiv (pragmatik) markerlarni aniqlashdagi funksional umumiylikdan tashqari, uning grammatik (morfoloqik va sintaktik) jihatiga e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, diskursiv markerlar hech qanday alohida leksik-grammatik til birliklar sinfini tashkil qilmaydi: markerlar sinfiga nutqning turli qismdagi so'zlar kiradi (va, yaxshi, ehtimol), shuningdek iboralar (bir tarzda, ko'proq yoki kamroq) yoki gaplar (Shubha yo'qki...). Y.Yu.Viktorova o'zlarining ishlarida, diskursiv markerlarni transkriptiv birliklar guruhi deb ham ataydi. Shuningdek, diskursiv markerlar nafaqat propozitsion bayonotlarda, balki gapdagi sintaktik strukturani yasashda ham ishtirok etmaydi [Мишиева 2015: 64] va osonlikcha gapni strukturaviy holatga hech qanday ta'sir ko'rsatmagan holda olib ham qo'yilishi mumkin. Misol uchun: -Are you fine? -Well, I have headache. Boshqacha aytganda, diskursiv markerlar sintaktik “ishtirok etmaslik” deb xarakterlanadi [Aijmer 2002: 2]. Bugungi o'zbek tilshunosligida Diskursiv markerlarning o'rganilishi matn va diskurs tahlili bilan chambarchas bog'liq. Masalan, badiiy matnlar va media-matnlarni diskursiv tahlil qilish zarurati ta'kidlanmoqda. Bu sohada lingvomadaniyatshunoslik va aksiologiya elementlari ham qo'llaniladi, chunki Diskursiv markerlar milliy qadriyatlar va madaniy kodlarni aks ettiradi. Kognitiv yondashuvda Diskursiv markerlar matn va diskursni bir-biriga bog'laydi, o'quv jarayonida ularni o'rgatish kreativ tafakkurni rivojlantiradi. Konferensiya materiallarida ham Diskursiv markerlar pragmatolingvistika va kommunikatsiya nazariyasi doirasida muhokama qilinmoqda. Diskursiv markerlar matnning tuzilishi, mazmuni va mantiqiy bog'liqligini ta'minlaydi. Bu markerlar nutqning ravonligi va tushunarligini oshirib, o'quvchi yoki tinglovchiga matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Diskursiv markerlarning o'zbek tilidagi o'rni: Matnni tashkil qilish: Markerlar matnni kichik qismlarga ajratish va ularni o'zaro bog'lash orqali matnning yaxlitligini ta'minlaydi. Fikrlarni izohlash: "Masalan", "aslida", "ayniqsa" kabi markerlar fikrlarni izohlash, tasdiqlash yoki rad etishda yordam beradi. Mantiqiy aloqalarni o'rnatish: "Agar... bo'lsa", "chunki", "natijada" kabi bog'lovchilar sabab-oqibat, shart-sharoit va taqqoslash kabi mantiqiy aloqalarni o'rnatadi. Nutqiy ravonlikni oshirish: Markerlar nutqni yanada tabiiy va ravon qilishga yordam beradi, o'quvchi yoki tinglovchiga fikrlar oqimini kuzatishni osonlashtiradi. Nutqiy ta'sirni kuchaytirish: Ba'zi markerlar, masalan, "albatta", "haqiqatan" kabi so'zlar nutqqa ta'sirchanlik va ishonchlilikni qo'shadi. Markerlar nafaqat, nutqimizda balki nasriy, dramatik, lirik janrlarimizda asar matnidagi kompozitsiyalarni bog'lash, syujetlarni oson ajratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'rganaliyotgan birliklarni funksional va grammatik xususiyatlarni asos qilib olsak, diskursiv markerlarga quyidagicha ta'rif bersak bo'ladi: diskursiv markerlar bu-til birliklarning transkatigorial guruhi bo'lib, ular o'z navbatida diskursni tashkil qilish va tartibga solishga yordam beradi, lekin gapning sintaktik guruhiga kiritilmaydi. Demak Bugungi o'zbek tilshunosligida diskursiv markerlar (matn bog'lovchilari) tilning rivojlanishini va o'zaro aloqalarini o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Ular gaplar va abzatslarni bir-biriga bog'lab, matnning yaxlitligini ta'minlaydi, tilning ijtimoiy funksiyasini ochib beradi. Bu markerlar orqali o'zbek tilining sintaktik va semantik tuzilmalarini, shuningdek, matnlardagi bog'liqlik va o'zaro aloqalarni tahlil qilish mumkin.

Shuningdek, Diskursiv markerlar bugungi o'zbek tilshunosligida pragmalingsvistika va diskurs tahlilining asosiy elementlaridan biridir. Ular nutqiy muloqotni boyitadi va madaniy qadriyatlarning lingvistik ifodasini ta'minlaydi. Kelajak tadqiqotlar Diskursiv markerlarning sotsiolingsvistik va kognitiv jihatlariga e'tibor qaratishi kerak.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Fraser, B. An Account of Discourse Markers // International Review of Pragmatics. –2009. – Vol. 1. – P. 1–28.
2. Safoyeva Sadokat Nasilloeyevna "DISKURSIV MARKERLAR BO'YICHA TURLI QARASHLAR" <https://doi.org/10.5281/zenodo.10776435>
3. Abdumalikova Dilfuza "ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA MARKERLARNING QO'LLANILISHI" <https://doi.org/10.5281/zenodo.15340457>
4. Aijmer, K. English Discourse Particles: Evidence from a Corpus. – Amsterdam: John Benjamins, 2002. – 298 p